

AGRESSIV (TAJOVUZKOR) XULQ-ATVOR XAVF GURUHIGA KIRUVCHI O‘QUVCHILARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISHNING SAMARALI YO‘LLARI.

*Ruzmetova Sumbul Bog'bek qizi
Ismoilova Mehriniso Ilyos qizi
Xorazm viloyati Hazorasp tumani
32-sonli maktab psixologlari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada agressiv-tajovuzkor xulq-atvoriga ega bo‘lgan o‘quvchilar, o‘smirlarda agressiya kelib chiqish sabablari, bola xulq-atvorini belgilab beruvchi asosiy omillar va agressiv xulq-atvoriga ega o‘quvchilarga qanaday psixologik oyrdam ko‘rsatish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Agressiya, shaxslararo nizo, agressiv xulq, shaxsiy muammolar, ruhiy zo‘riqish, psixologik yordam ruhiy zo‘riqish, psixologik maslahat, g‘azabni tuzatish usullari.

Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir. Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko‘pchilik o‘zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o‘zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo‘llari paydo bo‘lishiga olib keladi.

Agressiv xulq - shaxsning ma’naviy buzqlikka asoslangan, boshqarishning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta’sir o‘tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan g‘ayriinsoniy xususiyat. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo‘lishi ko‘pincha ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda yuz beradi. Shaxsning o‘ziga qaratilgan tajovuzkorlik “autoagressiya” (bunday holat shaxsdagi patologik o‘zgarishlarning ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi) deb ataladi. O‘z joniga qasd qilish, o‘ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko‘rinishlaridir. Jaholatga botgan, johillik va zo‘ravonlikni maqsadga erishishning asosiy va ustuvor vositasi deb biladigan shaxslarda Agressiv xulq kuchli bo‘ladi.

Agressiyaning asosiy sabablari:

- alkogol ichimliklarni suiiste'mol qilish, shuningdek, asab tizimini buzadigan dorilar, bu kichik holatlarga tajovuzkor noto'g'ri javob reaksiyasini rivojlanishiga olib keladi;
- shaxsiy muammolar, hal etilmagan shaxsiy hayot;
- bolalikda olingan ruhiy zo'riqish (ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning yomonligi tufayli bolalikda olingan nevrozlar).

A.Bandura va R.Uolter o'smirlar va ularning oilaviy sharoitlari o'rtasidagi ijtimoiylashish aloqasini o'rganib chiqib, bola xulq-atvorini belgilab beruvchi uchta asosiy xususiyatni ajratganlar:

- qaramlik (jinsiy-shaxsiyat) munosabatlarini o'rnatishga uning tayyorgarligi;
- vijdonining rivojlanish darajasi;
- agressiyaga nisbatan motivatsiyaning kuchi.

O'smirlardagi agressiya nafaqat pedagoglar va psixologlar, balki butun bir jamiyat uchun birmuncha o'tkir muammolardan biri hisoblanadi. Inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, hayotning yuqori ritmi, shaharlarning zichligi, ortib borayotgan axborot vositalari insonlar psixik holatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. O'smirlar jinoyatchiligining o'sib borayotgan oqimi va axloqning tajovuzkor shakliga moyil bolalar sonining ortishi bunday xavfli ko'rinishlarni uyg'otuvchi psixologik sharoitni o'rganishni birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan vazifa sifatida ilgari surdi. Tajovuzning u yoki bu shakllari ko'pchilik o'smirlar uchun xarakterlidir, biroq ma'lumki, muayyan kategoriyadagi bolalarda tajovuzkorlik axloqning turg'un shakli sifatida nafaqat saqlanadi, balki shaxsning turg'un sifatiga transformatsiyalangan rivojlanadi ham, natijada bolaning mahsuldor potentsiali pasayadi, to'laqonli kommunikasiya imkoniyati torayadi, uning shaxsiy rivojlanishi deformatsiyalanadi. Agressiv o'smir nafaqat atrofdagilarga, balki o'ziga ham bir talay muammolar keltiradi. Tajovuzkorlik shaxsning turg'un shaxsiy chizig'iga aylanmasligi uchun bola axloqining xususiyatlari va hissiy holatini tushunmoq, o'z vaqtida psixokorreksion ishni tashkil eta olmoq darkor. O'smirlarning tajovuzkor axloqini o'z vaqtida aniqlash bola shaxsining rivojlanishidagi noxush holatning oldini olish uchun juda zarur hisoblanadi. O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil qiladi. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'smirlik davrida o'smirning "men"i qaytadan shakllanadi. Uning atrofdagilarga, ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyati yo'nalishi keskin o'zgaradi. Ularda ilgarigi qiziqishlar so'nadi va yangi qiziqishlar paydo bo'ladi. Bunda ish qobiliyatining, o'zlashtirishning pasayishi, o'smirlarning qo'polligi va yuqori qo'zg'aluvchanligi, o'zidan qoniqmasligi, agressiya, xavotirlanish kayfiyat beqarorligi, depressiv kechinmalar, tez ranjish, arzimas narsaga ham kuchli reaksiya bildirish, o'zini past baholash kabi salbiy xulq-atvor ko'rinishlari namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida bolalar hissiy jihatdan

beqaror bo'lib qoladilar. Bu paytda o'smirning oilasidagilar ham u bilan muloqotni kuchaytirishi zarur. Psixologlar buni gormonal o'sish, tanani qayta qurish, balog'atga yetish kabi biologik omillar bilan bog'laydi. Ammo ba'zi hollarda hissiy o'zgarishlar radikal shakllarga ega bo'lib, agressiyaga aylanishi mumkin. Agar o'smir o'z agressiyasi bilan yolg'iz qolsa, bu uni buzg'unchi jamoalarga olib kirishi va natijada huquqbuzarliklarga olib kelishi mumkin.

Xo'sh bunday holatda, agressiv xulq-atvorga ega bo'lgan o'quvchilarga qanday psixologik yordam ko'rsatish mumkin. Psixologik yordam turlari orasida eng ommaviy qo'llaniladigan bu-maslahat berishdir.

Maslahat berish ishlari-amaliyotchi psixologning asosiy faoliyat turlaridan biridir. Maslahat berish ishlari o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar uchun olib boriladi. Maslahat berish ishlari individual va guruhli bo'lishi mumkin.

Agressiv xulq-atvorli o'smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar. a. O'ziga ijobiy baho berishga o'tish, xavfsizlikni tekshirish. b. o'zining va o'zgalarning emotsiya va tuyg'ularini anglashga o'rgatish, diskruktiv emotsiyalarni nazorat qilishni yaxshilash;

b. o'ziga va atrofdagilarga ziyon yetmaydigan g'azabni tuzatish usullarga o'rgatish, muammoli vaziyatda bola xulq-atvorida konstruktiv reaksiyalarga o'rgatish va disstruktiv vositalarni bartaraf etish;

d. ota-onalar pedagoglar bilan konsultatsiyalar (bolalardagi agressiyani bo'rttiruvchi jixozni belgilashga) o'rnatish.

Bundan tashqari agressiv xulq-atvorga ega bo'lgan o'quvchilar bilan alohida trening mashg'ulotlarini tashkil etish mumkin. Bu orqali o'quvchilardagi agressiyaning asl sababini aniqlab, uni bartaraf etishga erishish mumkin.

Shuningdek, agressiv xarakterdagi o'quvchilarni maktabdagi jamoat tadbirlariga ko'proq jalb qilish, ijtimoiy ko'mak gurhlariga qo'shilishlarini ta'minlash orqali ham ulardagi tajovozkorlik xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T., Kamilova N.G', Abdullayeva D.U., Xolinazarova M.X. «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» -Toshkent: 2017, 241-b
2. N.Ismoilova, D.Abdullayeva "Ijtimoiy psixologiya" -TOSHKENT: 2013, 130-b
3. Кернберг О.Ф. Агрессия при расстройствах личности и перверсиях. М, 1998-134 с
4. Ш.Мустафаева. «Ўсмир психологияси: биз билмаган жиҳатлар». Фарғона2015, 7-б
5. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Ma'ruzalar matni.Jizzax PI. 2013.-141 b

6. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy Pedagogika. Darslik//-T.: Fan va texnologiya nashiriyoti, 2013 y.
7. Bolalarga o`smirlarga maslaxat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G.V.Burmenskoy E. I.Zaxarova O.A.Karabova va boshqalar., ,Akademiya, 2012.-112s
8. Bolalarga o`smirlarga maslahat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G. V. Burmenskoy E. I. Zaxarova O. A Karabonova va boshqalar-M. , , Akademiya, , 2012. -112s.
9. Dolgova V. I. O`smirlarning shaxslararo munosabatlarini psixologik-pedagogik tuzatish;ilmiy va uslubiy tavsiyalar-Chelyabinsk;ATOCSO, 2010-112S 11